

Rahbar va yoshlar uchrashuvi

// 28 June 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/rahbar-va-yoshlar-uchrashuvi>



Bugun "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda boshqaruv raisi v.b To'liqin Zaripov, boshqaruv raisining sohaviy o'rinbosarlar hamda korxonada yoshlari ishtirokida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Unda yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlaridagi faolligini oshirish, IT, kitobxonlik, tabiatni asrash va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish, ushbu yo'nalishlarda ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Undan tashqari Jamiyat yoshlarining vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni malakali mutaxassis bo'lib yetishishida amaliy ko'mak berish, bilim va ko'nikmalarini oshirish lozimligi alohida ta'kidlab o'tildi.



Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan uchrashuvda yoshlar o'z tashabbuslarini, fikr va mulohazalarini bildirdilar, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Samimiy va ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilgan uchrashuv yakunida Jamiyat boshqaruv raisi takliflar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va bosqichma-bosqich ijrosini ta'minlash bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi.



dehkanabadpotashplant



uz-potash.uz



(+99875) 612-50-05



"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Matbuot xizmati